

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**ALIMOV SHUXRAT IKRAMOVICH**

**KISLOROD TARKIBLI QO‘SHIMCHALARDAN FOYDALANIB  
BENZINLI AVTOMOBILNING EKSPLUATATSION  
KO‘RSATKICHLARINI YAXSHILASH**

**05.08.06 – G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish**

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**  
**Abstract contents of dissertation of doctor of philosophy (PhD)  
in technical sciences**

**Alimov Shuxrat Ikramovich**

Kislorod tarkibli qo‘shimchalardan foydalanib benzinli avtomobilning  
ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini yaxshilash..... 3

**Алимов Шухрат Икрамович**

Улучшение эксплуатационных показателей бензинового автомобиля  
использованием кислородсодержащих добавок..... 21

**Alimov Shukhrat Ikramovich**

Improving the performance of an automobile with a gasoline engine using  
oxygen-containing additives..... 40

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works ..... 46

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**ALIMOV SHUXRAT IKRAMOVICH**

**KISLOROD TARKIBLI QO‘SHIMCHALARDAN FOYDALANIB  
BENZINLI AVTOMOBILNING EKSPLUATATSION  
KO‘RSATKICHLARINI YAXSHILASH**

**05.08.06 – G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish**

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T4004 raqam bilan ro'yxatdan olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tstu.uz](http://www.tstu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portaliga ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Bazarov Baxtiyor Imamovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar**

**Muhitdinov Akmal Anvarovich**

texnika fanlari doktori, professor

**Po'latov Tohirjon Rustambekovich**

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tdi (Manzil: 100208, Toshkent sh, Temirchi ko'chasi, 57-uy, Tel.: (99871)294-77-38).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_ bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent sh, Odilxo'jaev ko'chasi, 1-uy, Tel.: (99871) 299-05-66).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.A.Riskulov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t. f. d., professor

**K.Z.Ziyayev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, PhD.,dotsent

**A.A. Muxitdinov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda avtotransport vositalarini, xususan, shahar avtomobil transportini ekologik toza motor yonilg'isi bilan ta'minlash muhimligini inobatga olgan holda, yangi turdagi muqobil ekologik toza motor yonilg'i turlarini ishlab chiqish va joriy etishga katta ahamiyat berilmoqda. Hozirgi vaqtda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda neft motor yonilg'ilarini yuqori energetik xususiyatlarga ega bo'lgan boshqa energiya manbalari bilan almashtirish, shuningdek, ularning ekologik xavfsizligini ta'minlash va iqtisodiy samaradorliklarini belgilab olish, muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan yonilg'i sifatida foydalanish orqali avtomobil transportidan foydalanishga qaratilgan masalalar yetakchi o'rinni egallagan. Bu borada, jumladan, neft-motor yonilg'ilarini turli muqobil energiya manbalariga, xususan, mahalliy xomashyodan olinadigan energiyaga almashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda neft motor yonilg'ilarining o'rnini bosuvchilar hajmini kengaytirish muhimligini hisobga olgan holda, bazaviy standart motor yonilg'ilariga kislorodli turli spirtlar va efirlardan iborat qo'shimchalar qo'shib avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muxim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda, jumladan, avtomobillarning va dvigatellarning konstruksiyasiga o'zgartirish kiritmagan holda, benzin oktan sonini oshirish, hosil bo'lgan aralashmaning quyi yonish issiqligini, fazaviy barqarorligini yaxshilash, shu bilan birga ichki yonuv dvigatelining chiqindi gazlaridagi issiqxona gazlari va boshqa zaharli moddalarning emissiyasini kamaytirish, shuningdek, ekologik toza yonilg'ilardan foydalanish orqali, transport xarajatlarini va transport vositalarini atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, kislorod tarkibli qo'shimchalardan benzina qo'shib foydalanganda, ayniqsa, atrof-muhitning manfiy haroratlardagi ekspluatatsiya sharoitida murakkab tarkibdagi kislorodli qo'shimchalar bilan benzin aralashmasining fizikaviy yoki fazaviy barqarorligini yaxshilash kabi masalalar dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizdagi yengil avtomobillarda ananaviy yonilg'ilar o'rnini bosuvchi muqobil yonilg'ilardan, qayta tiklanadigan manbalardan olinadigan yonilg'ilardan foydalanish, ularni texnik iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatini kengaytiradi va shu maqsadda ekologik toza va samaradorligi yuqori bo'lgan tabiiy qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan oqilona foydalanishni belgilashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantiruvchi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilingani ham shundan dalolat beradi. Masalan, 2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida "... iqtisodiyot tarmoqlarini neft mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash..." va "...resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish..." va "...uy-joy kommunal xo'jaligi, ijtimoiy soha ob'ektlari va boshqa sohalarda energiya samaradorligini oshirish..."<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni

vazifalar alohida ko'rsatilgan. Mazkur vazifalarni bajarish uchun benzina kislorod tarkibli qo'shimchalar qo'shish orqali va ularning tarkibiy miqdorlarini tanlashni, ularni baholash usullarini ishlab chiqish va asoslash bilan avtomobillarining ekspluatatsion ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb vazifadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30-oktabrdagi PF-5863-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"<sup>2</sup> gi farmonida, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019 - 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"<sup>3</sup> gi qarorida, va 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"<sup>4</sup> gi qarori ijrosini ta'minlashga hamda mazkur faoliyat sohasida qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining III "Energetika, energiya va resurs tejamlilik, transport, mashina va asbobsozlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xorijiy olimlar tomonidan motor yonilg'isida qo'shimchalar sifatida spirtlar va efirlardan foydalanish orqali avtomobillarning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash bo'yicha tadqiqot etish masalalari o'rganilgan, jumladan Hammery R.N., Burns L.D., Miron W.L., Black F., Wuebben P., Anderson E., David E., Barker J.F., Terentev G.A., Karpov S.A., Oneychenko S.N., Emelyanov B.E., Danilov A.M., Kapustin B.M., Lerner M.O., Gureev A.X., Erosov B.I., Danilchenko T.B. va boshqalar spirtlar va efirlarni motor yonilg'isi yoki ularga qo'shimcha sifatida ishlatish, samaradorligini oshirish bo'yicha muammolari ustida tadqiqotlar olib borilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan A.A.Mutalibov, O.U.Salimov, D.Yusupov, B.I.Bazarov, S.M. Qodirov, R.Q.Musurmanov, S.I. Saidaxmedov, R.N. Axmatjanov, O.Z. Odilov va boshqalar tomonidan ichki yonuv dvigatellarida muqobil yonilg'ilardan foydalanish, avtomobillarning ekspluatatsion xususiyatlarini oshirishga, tabiiy resurslardan spirt va efirlarni olish va ularni motor yonilg'ilarida qo'shimcha sifatida ishlatishning texnologik jarayonlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borilgan.

Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, ushbu tadqiqotlarda benzina kislorodli qo'shimchalar sifatida spirtlar va efirlarning birgalikdagi ta'sirini, yonilg'i va avtomobillarning ekspluatatsion xususiyatlariga kompleks ta'sirini har tomonlama o'rganish, shuningdek bunday yonilg'idan foydalanilganda yonilg'ining past haroratga ta'siri masalalariga ham yetarlicha e'tibor berilmagan.

---

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-4574008>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-4539502>

<sup>4</sup> <https://lex.uz/docs/-6303230>

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti ITD-3 YoA-3-03 "Kompozitsion yonilg'ildan foydalanib uchqundan o't oldiriladigan ichki yonuv dvigatellarining energiya-ekologik ko'rsatkichlarini yaxshilash" (2012-2013 y.), TAYI va "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJ o'rtasida tuzilgan "Benzinmetanol aralashmasini motor yonilg'isi sifatida ishlatishni baholash" mavzusidagi 167/2011 raqamli xo'jalik shartnomasi (2011-2012 y.), TAYI va "Navoiyazot" AJ o'rtasida tuzilgan "Butanol bazasida kompozitsion aralashmani motor yonilg'isi sifatida baholash" mavzusidagi 173/2011 raqamli xo'jalik shartnomasi (2011-2014 y.), ITD-3 YoA-3-2 "Benzin-spirit motor yonilg'ilarini takomillashtirish" (2016-2017 y.), TDTrU va Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim o'zgarishi Toshkent shahar boshqarmasi o'rtasida tuzilgan "Kislorod tarkibli qo'shimchalarni benzina qo'shish orqali avtomobillarning ishlatilgan gazlar tarkibidagi zaharli moddalarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish" mavzudagi 62/2024 raqamli shartnoma (2024 y.) loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** benzina kislorod tarkibli qo'shimchalar qo'shib avtomobilning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini yaxshilashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

benzinda turli spirtlar va efirlardan qo'shimcha sifatida foydalanish bo'yicha bajarilgan ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni tahlil qilish;

kislorod tarkibli turli spirtlar va efirlar qo'shilgan benzinda ishlaydigan yengil avtomobilning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini hisoblash usulini takomillashtirish;

kislorod tarkibli turli spirtlar va efirlar qo'shilgan benzinda ishlaydigan yengil avtomobilning eksperimental (poligon) tadqiqot metodikasini ishlab chiqish;

kislorod tarkibli turli spirtlar va efirlar qo'shilgan benzinda ishlaydigan yengil avtomobilning laboratoriya va eksperimental (poligon) sinovlarini o'tkazish;

uchqundan o't oldiriladigan dvigatelli yengil avtomobil uchun kislorod tarkibli turli spirtlar va efirlar qo'shilgan benzindan motor yonilg'isi sifatida foydalanishni energo-ekologik va iqtisodiy samaradorligini baholash;

kislorod tarkibli turli spirtlar va efirlar qo'shilgan motor yonilg'isi bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun tavsiyalar ishlab chiqish;

**Tadqiqot obyekti** sifatida uchqundan o't oldiriladigan B15D2 modifikatsiyadagi dvigatelli Chevrolet Gentra avtomobili olingan.

**Tadqiqot predmetini** benzinli avtomobilning ekspluatatsion (energo-ekologik) ko'rsatkichlari hamda kislorod tarkibli turli spirtlar va efirlar qo'shilgan benzinning xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari:** Tadqiqot jarayonida nazariy tadqiqod usullari, transport vositalarining harakati va ekspluatatsion xossalari nazariyalari, tizimli va nazariy tahliliy usul bilan matematik-statistik, grafoanalitik, hisobiy va laborator-eksperimental tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Kislorod tarkibli qo'shimchalar tarkibini asoslash uchun ixtirochilik muammolari algoritimi va nazariyasidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ichki yonuv dvigateling issiqlik hisobidagi havoning ortiqlik koeffisienti o'zgarishini hisobga olib analitik usul bilan kislorod tarkibli qo'shimchalar qo'shilgan benzinda ishlaydigan yengil avtomobilning ekspluatatsion (energo-ekologik) ko'rsatkichlarini hisoblash usuli takomillashtirilgan;

eksperimental statistik ma'lumotlar yordamida kislorod tarkibli turli spirtlar va efirlar qo'shilgan benzinda ishlaydigan yengil avtomobilning eksperimental (poligon) tadqiqot uslubiyoti dinamik va yonilg'i tejamkorlik ko'rsatkichlarini aniqlash yuzasidan takomillashtirilgan;

benzinga spirtlar va efirlar qo'shilganligini hisobga olib, grafoanalitik usulda yonilg'i tarkibidagi vodorod va uglerod nisbatning (H/C) karbonat angidrid tashlanma gaziga bog'liqlik hususiyati aniqlangan;

eksperimental usullar yordamida kislorod tarkibli turli spirtlar va efirlar qo'shilgan benzin aralashmasi komponentlarining quyi harorat turg'unligidagi chegaraviy miqdorlari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

kislorodli tarkibli turli spirtlar va efirlar qo'shilgan benzindan foydalanishda yengil avtomobilning energo-ekologik samaradorligini hisoblash usuli takomillashtirilgan;

kislorod tarkibli turli spirtlar va efirlar qo'shilgan benzinda ishlaydigan yengil avtomobilning eksperimental (poligon) tadqiqotlar o'tkazish uslubiyoti va dasturi takomillashtirilgan;

karbonat angidrid gazi miqdorini kamaytirish orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlashda kislorod tarkibli turli spirtlar va efirlarni benzingga qo'shimcha sifatida foydalanishning ilmiy-texnikaviy tamoyillari asoslangan;

kislorod tarkibli turli spirtlar va efirlar qo'shilgan benzinning quyi haroratdagi turg'unligida barcha ingredientlarning yuqori chegaraviy konsentratsiyasi aniqlangan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy usullar, qo'llanilgan nazariy bog'liqliklarning asosiligi va talabnoma beruvchi tomonidan amalga oshirilgan hamda hisoblangan ma'lumotlarni haqiqiy laboratoriya, stend va poligon sharoitida o'tkazilgan tadqiqotning eksperimental natijalari bilan taqqoslash orqali tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kislorod tarkibli turli spirtlar va efirlar qo'shilgan avtomobil benzining ekspluatatsion ko'rsatkichlarini yaxshilash hisobiga ximmatologiya va ichki yonuv dvigatellari nazariyasini yanada rivojlantirish, shuningdek, ushbu yonilg'ining va IYoDning hususiyatlarini bashorat qilish, shuningdek bu yonilg'ida ishlaydigan transport vositalarining ekspluatatsion ko'rsatkichlarini baholash, hisoblash usuli o'tkazilishi zarur bo'lgan qimmatli eksperimental tadqiqotni kamaytirganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kislorod tarkibli qo'shimchalarni tanlash uchun komponentlar (spirtlar va efirlar) va ularning miqdoriy nisbatlarini

belgilash bo'yicha tavsiyalar, meyyoriy huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, shuningdek bu turga aloqador tadqiqotlar o'tkazishga maksimal darajada sarflarni kamaytirish imkonini beruvchi laboratoriya va ekspluatatsion sinov o'tkazishning o'ziga hosligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kislrod tarkibli qo'shimchalardan foydalanib benzinli yengil avtomobillarning ekspluatatsion ko'rsatgichlarini, energetik va ekologik ko'rsatkichlarini yaxshilash ilmiy tadqiqoti b'yicha olingan natijalar asosida:

kislrod tarkibli turli spirtlar va efirlar qo'shilgan benzinda ishlaydigan yengil avtomobilning ekspluatatsion ko'rsatgichlarini hisoblash usuli Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi 2024 yil 26 noyabrdagi № 03-03/3-11623-son ma'lumotnomasi). Natijada yonilg'ining sifati yaxshilandi, hamda ichki yonuv dvigatelida yonilg'i to'la yonishi uchun kerak bo'ladigan havo miqdorini 8,62% gacha kamaytirishga erishilgan;

kislrod tarkibli turli spirtlar va efirlar qo'shilgan benzinda ishlaydigan yengil avtomobilning eksperimental (poligon) tadqiqot usulubiyoti Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi 2024 yil 26 noyabrdagi № 03-03/3-11623-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu usulubiyot bu turdagi tadqiqotlar uchun etalon vazifasini ham bajaradi, hamda kutilayotgan natijalarni prognozlash orqali qimmat eksperimental tadqiqot uchun harajatlarni kamaytirish imkonini bergan;

kislrod tarkibli benzin yonilg'isidagi vodorod va uglerod (H/C) nisbatning karbonat angidrid gazi tashlanmasiga bog'liqligi Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi 2024 yil 26 noyabrdagi № 03-03/3-11623-son ma'lumotnomasi). Natijada kislrod tarkibli benzinning amaldagi ekologik standart K4 va undan yuqori sinflarga mos keladigan benzin yonilg'isini olishga erishilgan;

kislrod tarkibli turli spirtlar va efirlar qo'shilgan benzin aralashmasi Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi 2024 yil 26 noyabrdagi № 03-03/3-11623-son ma'lumotnomasi). Natijada kislrod tarkibli benzinning xiralashish harorati +5° C dan -25 ° C gacha turg'unligi yaxshilanganligi ushbu benzinning 29,5 % tashkil qiluvchi qo'shimchalarni olinadigan qayta tiklanuvchi biomassalardan oqilona foydalanish imkonini bergan;

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

## **Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.**

Dissertatsiya mavzusi va materiallari bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan. Ulardan 13 ta ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda, shu jumladan 9 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan. 1 ta EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazasiga guvohnoma hamda 1 ta ixtiroga patent olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 100 bet.

## **DISSERTATSINING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi, talabgirliigi, maqsad va vazifalari asoslanadi, tadqiqotning obyekti va predmeti tavsiflanadi, respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatiladi. Natijalarni amaliyotga tatbiq etish, tadqiqot mavzusi bo'yicha nashrlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar berildi.

Birinchi bob **“Kislorod tarkibli qo'shimchalardan avtomobil benzini uchun foydalanish bo'yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili”** – avtotransport vositalarining (ATV) ichki yonuv dvigatellari (IYoD) uchun kislorod tarkibli suyuq moddalardan motor yonilg'isi sifatida yoki bazaviy yonilg'iga qo'shimcha sifatida foydalanishdagi muammolarga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlar tahlillarini, texnik ishlanmalar hamda patent ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Kislorod tarkib qo'shimchali yonilg'ilarning ba'zi sifat hususiyatlariga ekspluatatsiya sharoitining va ATV energo-ekologik ko'rsatkichlari, shuningdek issiqxona gazlari tashlanmasining ta'siri tahlil qilingan. Shundan kelib chiqib, kislorod tarkibli qo'shimchalardan foydalanib benzinli avtomobilning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini yaxshilash yo'llari ko'rib chiqilgan.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarning zamonaviy me'yoriy-texnik hujjatlari bir qator muammolarni hal qilish jumladan, issiqxona gazlari tashlanmalarini kamaytirish maqsadida, spirt tarkibli yonilg'ilardan foydalanishga ruxsat beradi. Masalan avtomobil benzini sifat ko'rsatkichlari tarkibida 51-83 % etanol bo'lgan EN15293 etanoli yonilg'i E85 sifat ko'rsatkichidan birmuncha farq qiladi (1-jadval).

1-jadval

Benzin va etanoli yonilg'ining sifat ko'rsatkichlarini taqqoslash

Ko'rsatkich nomlari	O'lchov birliklari	Yonilg'i	
		AI-95	E85
Oktan soni	OST	95	109,1
15 <sup>0</sup> C dagi zichligi	kg/m <sup>3</sup>	725-780	784
To'yingan bug' bosimi	kPa	54-60	53,6
Quy yonish issiqligi	MDj/kg	44	29
Qaynash chegarasi	<sup>0</sup> C	30-190	85
H/C nisbat	-	1,86-1,92	2,657

O/C nisbat	-	-	0.411
------------	---	---	-------

K3 va undan yuqori ekologik sinfdagi yonilg‘i olish maqsadida avtomobil benziniga qo‘shimcha sifatida turli kislorod saqllovchilardan (spirtlar va efirlar) foydalanish O‘DSt 3031:2015, GOCT 32513-2013 da ruxsat etiladi. Biroq ushbu hujjatlarda har bir kislorod saqllovchining faqat maksimal ruxsat etilgan hajmiy miqdori ko‘rsatiladi, ammo ularni birgalikda ishlatish bo‘yicha tavsiyalar, shuningdek ularning iqlim sharoitiga bog‘langan oqilona konsentratsiyasi mavjud emas.

Bajarilgan ishlarning tahlili kislorod saqllovchilarni qo‘shimcha sifatida yoki kislorod tarkibli moddalarni benzina qo‘shimcha sifatida ishlatish bo‘yicha ishlab chiqilgan uslublar shuningdek, turli xil hisoblar va sinovlarni o‘tkazish uchun uslublar yetarli emasligini ko‘rsatdi.

Shu nuqtayi nazardan, kislorod tarkibli qo‘shimchalardan foydalanib benzinli avtomobillarning ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini yaxshilash juda dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Ikkinchi bob **“Benzina murakkab kislorod tarkibli birikmalarni qo‘shish usullarini takomillashtirishning nazariy asoslari”** – transport vositalari va ichki yonuv dvigatellarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini yaxshilash uchun murakkab kislorod tarkib qo‘shimchali benzindan foydalanishning yangi yondashuvini tasvirlaydi.

Odatda spirtlar va efirlar avtomobil benziniga qo‘shimchalar sifatida, asosan ularning oktan sonini oshirish uchun ishlatiladi.

Ushbu tadqiqotda spirtlar va efirlardan avtomobil benziniga qo‘shimcha sifatida birgalikda foydalanish birqancha yangi yondashuvga ega, ishlab chiqarilayotkan AI-92 benzin bazasida AI-95 va ekologok K4 (Yevro-4) sinfidan kam bo‘lmagan benzin olish mumkin, shuningdek tegishli laboratoriya va stend tadqiqotlarida aniqlanadigan fazaviy barqarorligi va boshqa xususiyatlarni sinergetik samaradorlik imkonini beradi.

Kislorod tarkib qo‘shimchali benzinni tashkil qiluvchi komponentlarni tanlash har birining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash imkonini beruvchi ekspluatatsion mavsumdan kelib chiqib oqilona konsentratsiyasini belgilash amalga oshiriladi. (2-jadval)

2-jadval

Ishlab chiqilgan yonilg‘i aralashmasini tashkil qiluvchi komponentlar xususiyatlari

Nomlanishi	Konsentrat siya, hajmda %	Afzalliklari	Kamchiliklari
Benzin AI-92	70,5 (yozgi) 66,5	Yuqori yonish issiqligi; Fizikaviy va kimyoviy barqarorligi.	Oktan soni kam; Tarkibida aromatik va olefin uglevodorodlar mavjudligi;

	(qishki)		Zararli moddalar tashlanmasi ko'pligi; Qurum hosil qilishi; Fotokimyoviy faolligi ko'proq.
Etanol	5	Oktan soni ko'pligi; Bug'lanish issiqligi yuqoriligi; Alangalanish chegarasini kengayishi; Qurum hosil bo'lmasligi; Yuvish xususiyati; Zararli moddalar tashlanmasi kamligi; Oltinugurt mavjud emas; Katalizatorning yumshoq ishlashi; Fotokimyoviy faolligi kamroq	Yonish issiqligining kamligi; Past haroratda fazaviy nobarqarorligi; To'yingan bug'lar bosimi pastligi; Qaynash haroratining pastligi; Gigroskopik xususiyati.
Butanol	20	Oktan soni ko'pligi; Bug'lanish issiqligi yuqoriligi; Alangalanish chegarasini kengayishi; Qurum hosil bo'lmasligi; Yuvish xususiyati; Zararli moddalar tashlanmasi kamligi; Oltinugurt mavjud emas; Katalizatorning yumshoq ishlashi; Fotokimyoviy faolligi kamroq.	Yonish issiqligining kamligi; Past haroratda fazaviy nobarqarorligi; To'yingan bug'lar bosimi pastligi; Qaynash haroratining pastligi.
Metiltretbytil efiri/Etiltretbutil efiri (MTBE/ETBE)	4 (yozgi) 8 (qishki)	Oktan soni ko'pligi; Zararli moddalar tashlanmasi kamligi; Alangalanish chegarasini kengayishi; Zaharli emas; Gigroskopik emas; Kelib chiqishi biologik (ETBE) Benzinda yaxshi eruvchanligi; Korrozion ta'sirga moyil emasligi.	Yuqori haroratda uchuvchanligi; Yonish issiqligining kamligi; Yuqori narx; Qaynash haroratining pastligi.
Monometil milin (MMA)	0,5	O'ta yuqori oktan soni; Fizikaviy va kimyoviy barqarorligi.	Zaharli; Yoqimsiz hid; Ko'p miqdorda foydalanilganda qurum va smola hosil bo'lishiga moyilligi.

Ma'lumki turli yonilg'ularda ishlaydigan avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlari odatda uchta asosiy: kiritish, tanlash va hisoblash parameterlari orqali avtomobilning tortish-tezlik hisobini bajarish bilan aniqlanadi.

Ichki yonuv dvigateilining issiqlik hisobi avtomobilning tortish-tezlik xususiyati, yonilg‘i samaradorligi, shuningdek ekologikligini aniqlash uchun asos bo‘la oladi.

Odatdagi ichki yonuv dvigatelining issiqlik hisobi loyihalash uchun tavsiflangan, taklif etilayotgan issiqlik hisobi tadqiq qilish usuli tavsiflangan bo‘lib, bu holda IYoD foydalanishdagi (ekspluatatsion) ko‘rsatkichlari va muqobil yonilg‘i turida yoki aniq bir kislorod tarkibli turli spirtlar va efirlar qo‘shilgan yonilg‘i aralashmasida ekspluatatsiya qilish imkoniyati aniqlanadi.

Taklif etilayotgan (takomillashtirilgan) kislorod tarkibli qo‘shimchalar qo‘shilgan (shartli, kislorod tarkibli qo‘shimchalar qo‘shilgan KTQQ) benzinda (standart motor yonilg‘isi) ishlaydigan uchqundan o‘t oldiriladigan IYoD uchun issiqlik hisobida 1 kg benzinni to‘la yonishida nazariy zarur bo‘lgan havo miqdorini o‘zgarishini hamda yonilg‘i aralashmasining tarkibini hisobga olish muhim.

1 kg benzin to‘la yonishi uchun nazariy zarur bo‘lgan havo miqdori hisobi ma‘lum formula asosida hisoblanadi [48, 49].

$$l_0 = 1/0,23(8C/3 + 8H - O_{yo}) = 1/0,23(8 \cdot 0,855/3 + 8 \cdot 0,145 - 0) = 14,957 \text{ kg} \quad (1)$$

1 kg KTQQ benzin to‘la yonishi uchun nazariy zarur bo‘lgan havo miqdori hisobi ham ma‘lum formula asosida hisoblanadi.

$$l_0 = 1/0,23(8C/3 + 8H - O_{yo}) = 1/0,23(8 \cdot 0,788/3 + 8 \cdot 0,142 - 0,068) = 13,770 \text{ kg} \quad (2)$$

1 va 2 formulalar yordamida aniqlangan 1 kg benzin va 1 kg KTQQ benzin to‘la yonishi uchun nazariy zarur bo‘lgan havo miqdori hisobidagi qiymatlar o‘z navbatida tarkibda mavjud bo‘lgan kislorodning 3,46 kg va 3,19 kg (havodagi kislorod miqdori 23,132 % massaviy hisobda) tengligi hisobiga 14,957 kg va 13,770 kg tashkil qiladi. Yani KTQQ benzin tarkibida kislorod 6,8 % mass. (0,068 kg) mavjudligi 1 kg bu yonilg‘ini to‘la yonishi uchun nazariy zarur bo‘lgan havo miqdoridagi 3,190 kg kislorod o‘rniga 3,122 kg talab qiladi.

Shunday qilib, 1 kg KTQQ benzin to‘liq yonishi uchun nazariy jihatdan zarur bo‘lgan kislorod miqdorining bazaviy standart benzina nisbatan kamayishi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$((G_B - G_{KTQQB}) / G_{KTQQB}) 100 = ((3,46 - 3,19) / 3,19) 100 = 8,46 \% \quad (3)$$

bu yerda  $G_B$ ,  $G_{KTQQB}$  – 1 kg benzin va 1 kg KTQQ benzin to‘liq yonishi uchun nazariy jihatdan zarur bo‘lgan kislorod miqdori.

Bundan kelib chiqib 1 kg KTQQ benzin to‘la yonishi uchun nazariy jihatdan zarur bo‘lgan havo miqdori kamayishini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$\left(\frac{l_0^B - l_0^{KTQQB}}{l_0^{KTQQB}}\right) 100 = \left(\frac{14,957 - 13,770}{13,770}\right) 100 = 8,62 \% \quad (4)$$

bu yerda  $l_0^B, l_0^{KTQQB}$  – 1 kg benzin va 1 kg KTQQ benzin to‘liq yonishi uchun nazariy jihatdan zarur bo‘lgan havo miqdori.

Bunda kislorod tarkibli qo‘shimchalar qo‘shilgan benzinda ishlaydigan ichki yonuv dvigatelidagi havoning ortiqlik koeffisienti quyidagicha aniqlanadi:

$$\alpha^{KTQQB} = \alpha^B + \left(\frac{l_0^B - l_0^{KTQQB}}{l_0^{KTQQB}}\right) = 0,96 + 0,086 = 1,0462 \quad (5)$$

AI-92 benzinda va kislorod tarkibli qo‘shimchalar qo‘shilgan benzinda ishlaydigan uchqundan o‘t oldiriladigan IYoD uchun taklif etilayotgan (takomillashtirilgan) issiqlik hisobidan foydalanishda yuqorida keltirilganlarni inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Amalga oshirilgan nazariy hisobda (3-jadval), kislorod tarkibli qo‘shimchalar qo‘shilgan benzindan foydalanish, IYoD turli yonilg‘ilar yonganda ajrab chiqadigan uglerod ikki oksidi tashlanmasi miqdorini, ishlatilayotgan yonilg‘i tarkibidagi uglerod moddasiga bog‘liqligi hisobiga kamayishini tasdiqlaydi.

3-jadval

CO<sub>2</sub> hisobiy qiymatlari

Yonilg‘i	Quyi issiqlik berish qobiliyati, TDj/ming t (TDj /ming m <sup>3</sup> )	Uglevodorod tashlanmasi koeffisienti (K <sub>2</sub> ), tC/ TDj	Uglevodorodning oksidlanish fraksiyasi (K <sub>1</sub> )	Выбросы CO <sub>2</sub>	
				t/t (kg/l)	t/ TDj
Dizel yonilg‘i	43,02	19,98 (20,2)	0,995 (1)	3,15 tCO <sub>2</sub> /t (2,7 kg CO <sub>2</sub> /l)	74,1
Benzin	44,21	19,19 (18,9)	0,995 (1)	3,09 tCO <sub>2</sub> /t (2,2 kg CO <sub>2</sub> /l)	69,3
SNG	47,17	17,91 (17,5)	0,99 (1)	3,07 tCO <sub>2</sub> /t (1,71 kg CO <sub>2</sub> /l)	63,1
Tabiiy gaz (STG)	49 (34,78)	15,04	0,995 (1)	2,64 t CO <sub>2</sub> /t 1,85 tCO <sub>2</sub> /ming m <sup>3</sup>	56,1
Etanol	30	17,4	0,995 (1)	1,83 tCO <sub>2</sub> /t (1,44 kg CO <sub>2</sub> /l)	63,8
Butanol	36	18,03	0,995 (1)	2,27 tCO <sub>2</sub> /t (1,83 kg CO <sub>2</sub> /l)	66,1
MTBE/ETBE	35,2	19,37	0,995 (1)	2,34 tCO <sub>2</sub> /t (1,73 kg CO <sub>2</sub> /l)	71,01
MMA	35,4	10,93	0,995 (1)	1,37 tCO <sub>2</sub> /t (0,91 kg CO <sub>2</sub> /l)	40,07

Uchinchi bob – “**Murakkab kislorod tarkib qo‘shimchali benzinli avtomobilning eksperimental tadqiqotlari**” eksperimental tadqiqot va poligon sinovi usulini, shuningdek laboratoriyaviy, stenddagi va poligondagi sinovlarda ishlatiladigan qurilmalar va o‘lchov asboblari haqida bayon qiladi.

Asosi spirtlar va efirlar bo‘lgan kislorod tarkib qo‘shimchali benzindan foydalanib benzinli avtomobilning ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan eksperimental tadqiqotlar nazariy natijalarni hamda hisoblash tadqiqotlarini tasdiqlash madsadida o‘tkaziladi.

Shu munosabat bilan eksperimental tadqiqotlarning vazifalari quyidagilardir:

tadqiq qilinayotgan yonilg‘ining fizika-kimyoviy, termofizik xususiyatlari laboratoriya sinovida o‘rganilgan; stenddagi tadqiqotda odatiy benzinda va laboratoriya sinovi natijasida tanlab olingan kislorod tarkibli qo‘shimchalar qo‘shilgan benzinda ishlaydigan uchqundan o‘t oldiriladigan dvigatelda sinalgan; poligon tadqiqotda odatiy benzinda va kislorod tarkibli qo‘shimchalar qo‘shilgan benzinda ishlaydigan uchqundan o‘t oldiriladigan dvigatelli avtomobil sinovi stenddagi o‘tkazilgan tadqiqot natijalari bilan taqqoslash maqsadida o‘tkazilgan.

Laboratoriya tadqiqoti kislorod tarkibli turli komponentlardan tashkil topgan yonilg‘ining fizika-kimyoviy va termofizikaviy xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha amaldagi meyoriy yetakchi hujjatlar talablariga asoslangan.

Stenddagi eksperimental tadqiqot laboratoriya sinovi asosida tanlab olingan kislorod tarkibli qo‘shimchalar qo‘shilgan benzinda ishlaydigan uchqundan o‘t oldiriladigan IYoD ko‘rsatkichlarini baholash maqsadida o‘tkazildi.

Laboratoriya tadqiqotlarini o‘tkazishda Toshkent davlat transport universiteti hamda Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti laboratoriya dastgohlaridan, OAJ “PETRO TEST AVTO” qurilmalaridan foydalanildi.

Etanol (5 % dan ko‘p bo‘lmagan), butanol (20 % dan ko‘p bo‘lmagan), MTBE (4-8 % mavsumga qarab), MMA (0,5 % dan ko‘p bo‘lmagan, chegaraviydan kam)larning tanlab olingan hajmiy konsentratsiyalar miqdori bo‘yicha AI-92 benzin bazasida turli komponentlardan (etanol, butanol, MTBE, MMA) tarkib topgan kislorod tarkib qo‘shimchali yonilg‘i xususiyatlarini tadqiq qilindi. Olingan ma’lumotlar AI-92 benzin bazasida K4 ekosinf talablaridan kam bo‘lmagan AI-95 va AI-98 benzinlarini olish mumkinligini ko‘rsatdi (4-jadval).

4-jadval

Kislorod tarkib qo‘shimchali benzin tahlili  
(AI92 70,5+Э 5+Б20+МТБЭ4+ММА 0.5)

№	Ko‘rsatkichlar nomlanishi	O‘lchov birliklari	Tadqiq ot usulida gi MH	O‘zDSt 3031-2015 (AI-95) talablari	Sinov natijalar i
1	Smolning massaviy konsentratsiyasi	mg/100 sm <sup>3</sup>	GOST 32404	10 dan ko‘p emas	4,2
2	Oktan soni tadqiqot usuli bo‘yicha	-	ГОСТ 8226	95,0 dan kam emas	95,7

3	Fraksion tarkib: - boshlang'ich harorat	°C	GOST 2177 A usul	35 dan kam emas	38
	- haydash chegarasi: - 10 %			75 dan ko'p emas	50
	- 50 %			120 dan ko'p emas	92
	- 90 %			190 dan ko'p emas	151
	- qaynash yakuni	%		215 dan ko'p emas	178
	- kolbadagi hajmiy qoldiq qismi			2,0 dan ko'p emas	1,0
	Qoldiq va yoqotishlar			4 dan ko'p emas	4
4	Oltinugurt massaviy miqdori	mg/kg	GOST 32139	500 dan ko'p emas	33,1

Dvigatelnining stenddagi tadqiqoti 5 komponentli HORIBA MEXA-584L modelidagi gaz tahlili qurilmasi bilan jihozlangan, induktorli tormozlash stend LanmecTest bazasida (Xitoyning Jiangsu Lanmec Electromechanical Technology Co., Ltd.da ishlab chiqarilgan) o'tkazildi. Poligon sinovi Piskent avtopoligonida "NIPO Standart" OAJ tasarrufidagi "KORSUS-DATRON" ilmiy tekshirish jamlanmasi yordamida o'tkazildi. (1, 2 rasmlar)



1-rasm. LanmecTest nomli induktorli tormozlash stendi




2-rasm. Poligon tadqiqoti jarayonidan lavhalar


Tadqiqot obyekti sifatida 1,5 litr hajmli B15D2 marka dvigatel bilan jihozlangan Chevrolet Genra (Lacetti) yengil avtomobilidan foydalanildi. Poligon eksperimental tadqiqoti ishlab chiqilgan uslubiyotga mos ravishda o‘tkazildi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobida **“Murakkab tarkibli kislorod saqllovchi qo‘shimchali benzinli avtomobilni nazariy va eksperimental tadqiqoti umumlashtirilgan natijalari”** nazariy va eksperimental tadqiqotning baholash va taqqoslashi, ularning ekologik va iqtisodiy samaradorligining umumlashtirilgan natijalari keltirilgan.

3 va 4 rasmlarda bazaviy AI-92 benzinda va kislorod tarkibli qo‘shimchalar qo‘shilgan benzinda ishlaydigan B15D2 marka dvigatelli Chevrolet Genra (Lacetti) avtomobilining hisobiy va eksperimental tashqi tezlik tavsifi berilgan.



3-rasm. Hisobiy tashqi tezlik tavsifi



4-rasm. Eksperimental tashqi tezlik tavsifi

IYoD ma'lum rejimda ishlaganda *i-chi* zararli moddaning hajmiy tashlanma miqdorini aniqlash:

$$Q_{ZMi} = Q_{ChG} * V_{ZMi}, \quad m^3/s \quad (6)$$

